

**Loyixa-smeta ishlarini bajarish uchun
74 - sonli SHARTNOMA**

„Andijon shaxar

«23 » May 2022-yil.

Bundan buyon Buyurtmachi deb ataluvchi "Shaxrixon tumani Obodonlashtirish boshqarmasi" nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor A.Teshaboyev va bundan buyon Bajaruvchi deb ataluvchi "YO'L-LOYIHA BYUROSI" MChJ Andijon viloyati filiali nomidan Nizom va 07.01.2022y №8-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi filial boshlig'i M.Zakirov buyurtmachining 2022-yil 16-may kungi №81748-sonli yig'ilish bayoniga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti

1.1. Buyurtmachi Mahalliy byudjet mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi ustidan deputatlar nazoratini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirotini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi "Mahalliy budjet mablag'larini sarflanishida jamoatchilik ishtirotini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213- IV-sonli qarorlariga asosan xalq deputatlari Shaxrixon tumani Kengashi xisobidan loyixa ishlarini bajarish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Andijon viloyati Shaxrixon tumani Eshon MFY Eshon qishloq yangi chek ko'chasingin joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun loyiha smeta xujjalari ishlab chiqishni topshiradi. Bajaruvchi esa o'z zimmasiga oladi.

1.2. Tanlov komissiyasining 2022-yil 16-may kungi №81748-sonli yig'ilish bayoniga loyixa-smeta ishlarini bajarish bilan bog'liq ishlarga shartnoma tuzilgan.

1.3. Loyixa-smeta xujjalari ishlab chiqarish shartnoma g'aznachilikdan ro'yxatdan o'tib va buyurtmachi tomonidan birlamchi xujjalarni taqdim etilgan kundan boshlanadi.

2. Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidalari

2.1. Shartnomaning umumiyligi qiymati QQS bilan 6 000 000 (Olti million) so'mni tashkil qiladi. Shundan LSX xarajatlari qiymatining 30% miqdorida (avans) bo'nak to'levi bu QQS bilan 1 800 000 (Bir million sakkiz yuz ming) so'mni tashkil qiladi.

2.2. Qolgan 4 200 000 (To'rt million ikki yuz ming) so'm to'lov 2022-yilda ushbu ob'ekt uchun budgetdan yoki boshqa moliyalashtirish manbaidan mablag' ajratilgandan so'm amalga oshiriladi.

2.3. Har bir bosqichda bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolnin amalga oshiriladi.

2.4. Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so'ng 5 bank kuni mobaynida Bajaruvchiga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

2.5. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda; ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

3. Tomonlar majburiyatları

3.1. Bajaruvchi ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchining so'rovi asosida taqdim qiladi.

3.3. Buyurtmachi shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan xajim va shartlarga muvofiq bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalananish, Bajaruvchining roziligidan shartnomada bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

3.4. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov haqi o'z vaqtida o'tkazilmagan holda ishlarni tugallash muddati ham to'lov haqi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytililadi.

3.5. Ushbu shartnomaga bo'yicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

3.6. Mazkur shartnomaning 2.4-bandji bajarilmagan holda Bajaruvchi buxgalteriya hisob-kitoblarini o'zaro solishtirish dalolathomasi yoki bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari asosida Buyurtmachining bankdagi barcha turdag'i hisob-raqamlaridan inkasso talabnomasi qo'yish orqali pulni undirishga to'liq haqli.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Ishlar bajarilishining alohida bosqichlarida va shartnomada ko'rsatilgan ishlar to'liq bajarilgandan so'ng Bajaruvchi tomonidan rasmiylashtirib Buyurtmachiga topshirilishi kerak bo'lgan hisobot hujjatlari topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida Buyurtmachiga topshiriladi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.1 bandida ko'rsatilgan hisobot xujjalalarini olgan kunidan boshlab 5 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmashlikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmashlik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmashligining asosli rad javobini bergan xolda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtি hisoblanadi.

4.6. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

5. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash

5.1. Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

6. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

6.1. Agar ushbu shartnomada bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnomada bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

6.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rillishini muhokama qiladilar.

6.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnomada bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

7. Qo'shimcha shartlar

7.1. Bajaruvchi loyihani muddatidan oldin bajargan holda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

7.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonun hujjatlari o'rnatilgan tartibda hal qilinadi.

7.3. Loyiha-smeta hujjatlari davlat ekspertiza xulosasi olinib, ushbu davlat ekspertiza xulosasiga asosan shartnomada baxosi qo'shimcha kelishuv asosida o'zgartirilgandan so'ng Bajaruvchi loyiha-smeta xujjalalarini ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi orqali Buyurtmachiga topshiradi.

7.4. Bajaruvchi mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, Buyurtmachini xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jabb qilish huquqiga ega.

7.5. Mazkur shartnomada bo'yicha nizo kelib chiqqan xollarda, tomonlar kelishuvga erishmagan taqdirda, qonunlarda belgilangan tartibda va Andijon viloyati iqtisodiy sudida xal qilinadi.

7.6. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi shartnomada narxining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.7. Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida nenna to'lavdi, bunda nenvanino umumiv summasi baiarilmaoan ishlar oivmatining 50

7.8. Agar Buyurtmachining mazkur shartnoma tuzilgan kun holatiga avvalgi shartnomalar bo'yicha Bajaruvchi oldida qarzdorligi bo'lsa, Bajaruvchi ushbu shartnomaga asosan to'langan pul mablag'lardan eng avvalo qarzdorlikni ushlab qolishga va qarzdorlik yopilgandan keyin qolgan mablag'larni ushbu shartnoma bo'yicha hisobga olishga haqli.

7.9. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- Shartnoma baxosini kelishuv bayonnomasi (1- ilova)
- Bajarish va moliyalashtirish jadvali (2- ilova)

7.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

7.11. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha

7.12. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

8. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

Buyurtmachi

Bajaruvchi

Andijinviloyati Shaxrixon tuman
Obodonlashtirish boshqarmasi

Manzil: Намозгоҳ МФЙ Муса жалил кучаси
11-үй

tel/faks: 74-345-3692

INN: 204604616 OKONX : 90290

ShXR: 401722860032307045204110008

Markaziy Bank Toshkent shaxar bosh
boshqarmasi Uz.Res.Moliya Vazirligi

X/r: 23402000300100001010

MFO: 00014

"YO'L-LOYIHA BYUROSI" MChJ

Andijon viloyati filiali

Toshkent shaxri, Mustaqillik shox ko'chasi,

68-uy Telefon: 237-38-55


X/t: 2020 8000 8040 1094 1001

AKIB «Ipoteka-Bank»

Yashnobod filiali

MFO 00959 INN 300 112 785


OKONX 66000 OKED 71110


A.Teshaboyev



M. Zalakov

Xuquqshunos:



«16» May 2022yil

74 - sonli shartnomma

Shartnomma bahosini kelishuvi

BAYON NOMASI

Biz, kuyida imzo qo'yuvchilar: Mahalliy byudjet mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi ustidan deputatlar nazoratini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi "Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213- IV-sonli qarorlariga asosan xalq deputatlari Shaxrixon tuman Kengashi xisobidan loyixa ishlarini bajarish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Andijon viloyati Oltinko'l tumani Ayronchi MFY Obod ko'chasingning joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun loyiha smeta xujjatlari ishlab chiqishni topshiradi shu bo'yicha tuzilgan 74-sonli shartnomma bahosi QQS bilan 6 000 000 (Olti million) so'mni tashkil qiladi.

Ushbu bayonnomma Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtaida uzaro xisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos xisoblanadi.

Buyurtmachi

Bajaruvchi

AndijinviloyatiShaxrixon tuman

Obodonlashtirish boshqarmasi

Manzil: Hamozgox MФЙ Musa жалил кучаси
11-уй

tel/faks:74-345-3692

INN:204604616 OKONX : 90290

ShXR: 401722860032307045204110008

Markaziy Bank Toshkent shaxar bosh
boshqarmasi Uz.Res.Moliya Vazirligi

X/r: 23402000300100001010

MFO: 00014



A.Teshaboyev



"YO'L-LOYIHA BYUROSI" MChJ

Andijon viloyati filiali

Toshkent shaxri, Mustaqillik shox
ko'chasi, 68-uy. telefon: 71 237-38-55
X/r: 2020 8000 8040 1094 1001

AKIB «Ipoteka-Bank»

Yashnobod filiali

MFO 00959 INN 300 112 785
OKONX 66000 OKED 71110



Mc.Zakirov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

№ RT37728264

1. Loyixaning turi: Shartnoma

2. Loyixaning nomi:

Shahrixon tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda Yo‘l-loyiha byurosi MCHJ o‘rtasida tuzilgan Eshonqishloq MFY Chek ko‘chasini joriy ta’mirlash ishlariga loyixa-smeta ishlarini tayyorlash shartnomasi;

3. Loyihaning ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma’lumot;

Shartnoma loyihasi Shahrixon tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun 21.05.2022 yilda kiritilgan;

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuristkonsulti



M.Abdioxobov

2022-yil 23-may